



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 236 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish	13
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
Mutallibjonov Boburmirzo	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
Nosirova Feruza Baxadir qizi	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
Gafurova Mahfuza Abbosovna	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
Ravshanova Uldona Narziboyevna	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
Vorisova Barnoxon Olimjon qizi	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antfragil yondashuvning o'rni.....	51
G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
G'ofurov To'liqinjon	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
Ismailova Aziza Dilshodovna	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
Канаатов Есимкан	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
Abdullayev Amirulla Xazratovich	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
Pardayeva Kamola Sultonovna	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
Imomaliyev Quvvat Choriyevich	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diaagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
Nurmetov Tursunbek Kenjayevich	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
Mardonov Maqsudbek Maxmudovich	
Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
Umarova Umidaxon Ibaydullayevna	



Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
<i>Xo'janiyozov Shokir Rustamovich</i>	
Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi	114
<i>Isroilova E'zoza Akmal qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari	119
<i>Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari	124
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi	129
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	133
<i>Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi</i>	
Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar	137
<i>Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar	142
<i>Babajanova Gulmira Muratbayevna</i>	
Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations	147
<i>Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi</i>	
Клинические особенности аллергодерматозов у лиц, проживающих в Ташкентской области	153
<i>Абдуллаева Ф. Б., Саипова Н. С.</i>	
Tyutorlik faoliyatining pedagogik ahamiyati	160
<i>Ashirova Gulnora Xayrullayevna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish	164
<i>Nurmuratova Iroda Nuriddinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda diqqat yetishmasligi va giperfaollik: mnemotexnik korreksiya	169
<i>Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna</i>	
The Historical Development of Translation	173
<i>Sharopova Gulnoza Odil qizi</i>	
Integratsiya jarayonlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan metodik tizim	176
<i>L. T. Xudaybergenova</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlari metodikasini ishlab chiqish	180
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni: ilmiy adabiyotlar sharhi	186
<i>Xalimova S. A.</i>	
The Role and Opportunities of Artificial Intelligence (AI) in the Management of Educational Institutions	191
<i>Abduqahorova Lobar Oybekovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmi	197
<i>Xidirova Maftuna Ilhom qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM va an'anaviy usullarning qiyosiy tahlili	205
<i>Boltayeva Nasiba Ilhom qizi</i>	

Kasb-hunar ta'limida elektromobillar va robototexnika yo'nalishlarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik tajribasi va "2+1" dual ta'lim modeli.....	209
<i>Dushanov Nuriddin Qo'ldoshovich, Suvonov Murodjon Abdurahmon o'g'li, Ibragimova Dinara Rustam qizi, Karimova Oygul Ro'ziyevna, Avliyoqulov Muxammad Mustafoyevich</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarining metodikasini ishlab chiqish ...	212
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda "ijodiy faoliyat" va "kreativlik" konseptlarining nazariy-metodologik interpretatsiyasi...	218
<i>Komila Aytmuratova</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida rivojlantirishga doir mashqlar tipologiyasining samaradorligi.....	222
<i>Maxmudova Feruza Salimjonovna</i>	
O'zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini	227
<i>Qurbonova Malika Toxir qizi</i>	
O'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar	230
<i>Saydaxmedova Barno Batirovna</i>	

TYUTORLIK FAOLIYATINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Ashirova Gulnora Xayrullayevna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimida tyutorlik faoliyatining pedagogik mazmuni, maqsadi, vazifalari va funksional imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tyutorning ta'lim oluvchining individual ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va ta'limiy imkoniyatlarini aniqlash, ularni rivojlantirish hamda individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishdagi roli yoritiladi. Tyutorlik faoliyatining diagnostik, maslahat berish, motivatsion, ta'limiy, kasbiy yo'naltiruvchi, refleksiv va monitoring funksiyalari tizimlashtiriladi. Shuningdek, tyutorlikni pedagogik qo'llab-quvvatlashning uzluksiz mexanizmi sifatida tashkil etish modeli taklif qilinadi.

Kalit so'zlar: tyutor, tyutorlik faoliyati, individual ta'lim, individual ta'lim trayektoriyasi, pedagogik qo'llab-quvvatlash, diagnostika, motivatsiya, refleksiya, monitoring, kognitiv rivojlanish.

Abstract: The article analyzes the pedagogical content, purpose, tasks, and functional capabilities of tutoring in the modern education system. It examines the tutor's role in identifying learners' individual needs, interests, abilities, and educational opportunities, as well as in developing an individual educational trajectory. The diagnostic, advisory, motivational, educational, career-guidance, reflective, and monitoring functions of tutoring are systematized.

Key words: tutor, tutoring activity, individual education, individual educational trajectory, pedagogical support, diagnostics, motivation, reflection, monitoring.

Аннотация: В статье анализируются педагогическое содержание, цель, задачи и функциональные возможности тьюторской деятельности в современной системе образования. Раскрывается роль тьютора в выявлении индивидуальных потребностей, интересов, способностей и образовательных возможностей обучающихся, а также в формировании индивидуальной образовательной траектории. Систематизированы диагностическая, консультативная, мотивационная, образовательная, профориентационная, рефлексивная и мониторинговая функции тьютора.

Ключевые слова: тьютор, тьюторская деятельность, индивидуальное образование, индивидуальная образовательная траектория, педагогическая поддержка, диагностика, мотивация, рефлексия, мониторинг.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirish, ta'lim oluvchining individual imkoniyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va rivojlanish sur'atlarini hisobga olishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ta'limning asosiy maqsadi faqat muayyan hajmdagi bilimlarni o'zlashtirish bilan chegaralanib qolmasdan, balki ta'lim oluvchining mustaqil fikrlashi, o'z faoliyatini boshqarishi, muammoli vaziyatlarda maqbul qaror qabul qilishi, o'z imkoniyatlarini baholashi va doimiy ravishda o'z ustida ishlashi uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Shu jihatdan ta'lim jarayonida ta'lim oluvchini faol subyekt sifatida e'tirof etish va uning individual rivojlanish yo'lini belgilash muhim pedagogik vazifaga aylanmoqda.

Ta'limning individuallashtirilishi ta'lim oluvchilarning bir xil mazmun, metod va vositalar asosida o'qitilishini emas, balki ularning shaxsiy imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Chunki ta'lim oluvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari, motivatsiyasi, fikrlash uslubi, o'zlashtirish sur'ati va kelajakdagi maqsadlari bir-biridan farq qiladi. Mazkur farqlarni hisobga olmasdan tashkil etilgan ta'lim jarayoni ayrim ta'lim oluvchilarning imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy pedagogik jarayonda individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish va ta'lim oluvchining rivojlanishiga mos pedagogik qo'llab-quvvatlashni tashkil etish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, tyutorlik faoliyati shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishning muhim pedagogik mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tyutorning faoliyati ta'lim oluvchining mavjud imkoniyatlarini aniqlash, uning ta'limiy ehtiyojlari va qiziqishlarini o'rganish, rivojlanish maqsadlarini belgilash hamda ushbu maqsadlarga erishish



uchun individual ta'lim yo'lini shakllantirishga yo'naltiriladi. Bunda tyutor ta'lim oluvchining o'rniga qaror qabul qiluvchi yoki uning faoliyatini to'liq boshqaruvchi emas, balki mustaqil tanlov va qaror qabul qilish jarayonini pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi hamroh sifatida faoliyat yuritadi.

Tyutorlik faoliyatining muhim xususiyatlaridan biri uning diagnostik xarakterga ega ekanligidir. Tyutor dastlab ta'lim oluvchining bilim darajasi, qiziqishlari, qobiliyatlari, motivatsiyasi, ehtiyojlari va mavjud muammolarini aniqlaydi. Diagnostika natijalari asosida ta'lim oluvchining kuchli va rivojlanirilishi zarur bo'lgan jihatlari belgilanadi. Bu esa keyingi pedagogik faoliyatni umumiy emas, balki aniq individual ehtiyojlarga asoslangan holda tashkil etish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

L.S. Vygotskiyning pedagogik-psixologik qarashlarida ta'lim va rivojlanishning o'zaro aloqadorligi, bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va pedagogik hamkorlikning ahamiyati asoslab berilgan. Ushbu nazariy qarashlar tyutorlik faoliyatida ta'lim oluvchining mavjud imkoniyatlarini aniqlash va uning keyingi rivojlanishini pedagogik qo'llab-quvvatlash zarurligini asoslash uchun metodologik ahamiyatga ega.

I.A. Zimnyayaning pedagogik psixologiyaga oid tadqiqotlarida ta'lim jarayonining psixologik mexanizmlari, ta'lim oluvchining faoliyati va uning rivojlanish xususiyatlari muhim o'rin egallaydi. Mazkur yondashuv tyutorlik faoliyatida ta'lim oluvchining individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, uning motivatsiyasi va ta'limiy faolligini qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatadi.

V.A. Slastenin va uning hammualliflari tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik qarashlarda ta'lim jarayonining yaxlitligi, pedagogik faoliyatning maqsadga yo'naltirilganligi va shaxsni rivojlantirishga xizmat qilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv tyutorlik faoliyatini alohida pedagogik harakatlar majmui emas, balki maqsad, mazmun, metod, vosita va natijalar o'zaro bog'langan yaxlit tizim sifatida qarash imkonini beradi.

I.P. Podlasiy pedagogik jarayonning mazmuni va uni tashkil etish masalalarini yoritib, ta'lim samaradorligini ta'minlashda pedagogik shart-sharoitlarning ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu qarashlar tyutorlik faoliyatida ta'lim oluvchining individual ehtiyojlariga mos pedagogik muhitni yaratish, uning ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash va natijalarni monitoring qilish zarurligini asoslashga xizmat qiladi.

E.V. Bondarevskayaning shaxsga yo'naltirilgan ta'limga oid qarashlarida ta'lim oluvchining shaxsiy rivojlanishi, uning individual xususiyatlarini hisobga olish va ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Bu qarashlar tyutorlik faoliyatida ta'lim oluvchi bilan subyekt-subyekt munosabatlarini shakllantirish, pedagogik hamkorlik va individual qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish zarurligini asoslaydi.

A.V. Xutorskoyning didaktik qarashlari esa ta'lim oluvchining mustaqil faoliyati, kompetensiyalarni shakllantirish va ta'lim jarayonining natijadorligini ta'minlash masalalarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv asosida tyutorlik faoliyatini ta'lim oluvchining mustaqil ta'lim olishi, o'z faoliyatini rejalashtirishi, ta'lim resurslarini tanlashi va erishilgan natijalarni baholash kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirish mumkin.

M. Knowlesning kattalar ta'limga oid qarashlarida ta'lim oluvchining mustaqilligi, tajribasi, ehtiyojlari va amaliy maqsadlarini hisobga olishga alohida e'tibor beriladi. Mazkur yondashuv tyutorlik faoliyatining maslahat berish, individual rejalashtirish va ta'lim oluvchini o'z ta'lim jarayonini boshqarishga yo'naltirish funksiyalari bilan uyg'unlashadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy pedagogikada keng qo'llanilayotgan shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, tizimli-faoliyatli, individual va refleksiv yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda tyutorlik faoliyatining ta'lim oluvchining individual rivojlanishini ta'minlashdagi pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, uning mazmuni, tarkibiy komponentlari, funksiyalari va samarali tashkil etish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslashga e'tibor qaratildi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy o'rganish va tahlil qilish metodidan foydalanildi. Ushbu metod yordamida tyutor, tyutorlik faoliyati, individual ta'lim, individual ta'lim trayektoriyasi, pedagogik qo'llab-quvvatlash, ta'lim motivatsiyasi, refleksiya, monitoring va kognitiv rivojlanish kabi tushunchalarning ilmiy mazmuni o'rganildi. Mazkur tushunchalarning o'zaro aloqadorligi aniqlanib, tyutorlik faoliyatining zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni nazariy jihatdan asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tizimli yondashuv asosida tyutorlik faoliyati alohida pedagogik harakatlar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'langan maqsad, mazmun, subyektlar, metodlar, vositalar, natijalar va teskari aloqadan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqildi. Bunda tyutorning faoliyati ta'lim oluvchining individual ehtiyojlarini aniqlashdan boshlanib, individual rivojlanish maqsadlarini belgilash, ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish, pedagogik qo'llab-quvvatlash, monitoring, refleksiya va korreksiya bosqichlari orqali davom etishi aniqlandi.



Qiyosiy tahlil metodi orqali an'anaviy pedagogik yondashuv bilan tyutorlik faoliyatining o'ziga xos jihatlari taqqoslandi. An'anaviy yondashuvda pedagog ko'proq ta'lim mazmunini yetkazuvchi va o'quv faoliyatini tashkil etuvchi subyekt sifatida namoyon bo'lsa, tyutorlik faoliyatida ta'lim oluvchining individual imkoniyatlari, tanlovi, qiziqishlari va rivojlanish maqsadlari markazga qo'yiladi. Shu jihatdan tyutor ta'lim oluvchining tayyor qarorlarini belgilab beruvchi emas, balki uning mustaqil ta'limiy qarorlarini shakllantirishga yordam beruvchi pedagogik hamroh sifatida qaraladi.

Tyutorlik faoliyatining asosiy maqsadi ta'lim oluvchining individual rivojlanishini pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash, uning ta'limiy ehtiyojlarini aniqlash va individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsad diagnostika qilish, ta'limiy maqsadlarni belgilash, o'quv faoliyatini rejalashtirish, motivatsiyani qo'llab-quvvatlash, ta'lim resurslarini tanlash, kasbiy yo'nalishni belgilash, natijalarni monitoring qilish va refleksiv baholash vazifalari orqali amalga oshiriladi.

Tyutorning diagnostik funksiyasi ta'lim oluvchining bilim darajasi, qiziqishlari, qobiliyatlari va ta'limiy ehtiyojlarini aniqlashga xizmat qiladi. Maslahat berish funksiyasi ta'lim oluvchiga ta'lim mazmuni va resurslarini tanlashda mustaqil qaror qabul qilish uchun pedagogik yordam beradi. Motivatsion funksiya o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishga, refleksiv funksiya esa o'z faoliyatini tahlil qilish va keyingi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

Monitoring dastlabki diagnostika natijalarini keyingi natijalar bilan taqqoslash, rivojlanish dinamikasini aniqlash va zarur hollarda individual ta'lim trayektoriyasiga korreksiyalar kiritish imkonini beradi.

TYUTORLIK FAOLIYATINING MODEL



1-rasm



Tyutorlik va kognitiv rivojlanish. Tyutorlik faoliyati ta'lim oluvchining kognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega. Diqqat, xotira, tafakkur, muammoli vaziyatlarni hal qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar individual ta'lim trayektoriyasiga kiritilishi mumkin. Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, taqqoslash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash va mustaqil xulosa chiqarish ta'lim oluvchining kognitiv faolligini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim jarayonida tyutorlik faoliyatini tashkil etish ta'lim oluvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, uning ta'limiy ehtiyojlarini aniqlash va individual rivojlanish yo'nalishini belgilashning samarali pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi. Tyutorlik faoliyati ta'lim oluvchini tayyor bilimlarni passiv qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki o'z ta'limiy maqsadini belgilay oladigan, mustaqil qaror qabul qiladigan, o'z faoliyatini boshqaradigan va natijalarini baholay oladigan faol shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltiriladi.

Tadqiqot tahlillari shuni ko'rsatadiki, tyutorlik faoliyatining pedagogik samaradorligi, avvalo, ta'lim oluvchining individual xususiyatlarini chuqur o'rganish va uning ehtiyojlariga mos pedagogik yondashuvni tanlash bilan belgilanadi. Shu jihatdan diagnostika tyutorlik faoliyatining boshlang'ich va muhim bosqichi bo'lib, u orqali ta'lim oluvchining bilim darajasi, qiziqishlari, qobiliyatlari, motivatsiyasi, muammolari va rivojlanish imkoniyatlari aniqlanadi. Olingan diagnostik ma'lumotlar keyingi pedagogik faoliyatning mazmunini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Выготский Л.С. Педагогическая психология. - М.: Педагогика, 1991.
2. Зимняя И.А. Педагогическая психология. - М.: Логос, 2004.
3. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. - М.: Академия, 2002.
4. Подласый И.П. Педагогика. - М.: Юрайт, 2013.
5. Бондаревская Е.В. Теория и практика личностно ориентированного образования. - Ростов н/Д.: Феникс, 2000.
6. Хуторской А.В. Современная дидактика. - СПб.: Питер, 2001.
7. Knowles M.S. The Modern Practice of Adult Education. - New York: Cambridge

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.